

SOCIAL PEDAGOGICAL ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Boronova Iroda Kholtora kizi

Termez State University

Faculty of Social Sciences

Pedagogy and psychology

308- group student

MAKTABGACHA TA'LIM MUASASSASIDA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT

Bo'ronova Iroda Xolto'ra qizi

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo'naliishi

308- guruh talabasi

Inson tug'libdiki, u muhit, atrofdagi odamlar va uni o'rabi turgan borliq bilan hamohang ravishda o'sadi, ulg'ayadi. Individ sifatida tug'ilgan bolaning shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, biologik muhitlar bilan bir qatorda ta'limg-tarbiya deb ataluvchi muhim omil ham katta ahamiyat kasb etadi. Ta'limgning asosiy vazifasi - har bir bolaga uning psixofizik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, unga jamiyatda adashib qolmaslik, hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradigan, shuningdek, uning potentsial qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ta'limg va tarbiya darajasini berish, ya'ni. ta'limgni individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish vazifasi bиринчи о'ringa chiqadi. inson ma'lum jamiyatda rivojlanishni albatta bu muhit sharoitllariga, uning qonuniyatlariga bo'y sunishdan boshlashi lozim. Zeroki, inson o'zini qay bir makon va zamonda erkin his etar ekan u o'z imkoniyatlarini qo'llagan holda yangi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi va shu maqsad uchun olg'a intiladi. Shaxsning o'zi tehsil olayotgan yoki mehnat faoliyatini olib borayotgan muhit sharoitiga moslashuvi va qobiliyatlarini namoyon etsishida bugun yangi, ammo juda muhim soha hisoblangan ijtimoiy pedagogic faoliyat juda muhim o'rinn egallaydi. Ta'limg muasassasidagi ijtimoiy pedagoglar faoliyati o'quvchining o'z imkoniyatlariga tayangan holda, kelajakka yo'naltirilgan ta'limgni rivojlantirish tendensiyalariga asoslanadi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bu bolaga (o'spirin) o'zini tashkil qilishda, uning psixologik holatida, oilada, maktabda, jamiyatda normal munosabatlarni o'rnatishtida yordam berishga qaratilgan ijtimoiy ish, shu jumladan pedagogik faoliyat.

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1059-sonli "uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan bizda tarbiya to'rt bosqichda olib boriladi:

bиринчи bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: bиринчи davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'limg 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchи bosqich — umumiyo'rta ta'limg tizimida (ikki davr asosida: bиринчи davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

to'rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limg muassasalarini tizimida (ikki davr asosida: bиринчи davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limg bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'limg muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

Konsepsiya keltirilganidek ijtimoiy pedagogik faoliyat ham oiladan boshlanadi va uning ikkinchi bosqichi maktabgacha ta'lim muassassalarida ijtimoiy pedagogik faoliyat hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi ijtimoiy pedagogikning asosiy vazifasi bolaning ta'lim muassasasiga endigina kelgan bolalarda kechadigan adaptatsion jarayonning oson kechishini ta'minlash hamda bu jarayon og'ir kechayotgan bolalarni nazorat qilish, ularning bu bosqichda muvaffaqiyatlari o'tib olishlari uchun pedagogik, psixologik yordam ko'rsatishdan iborat. Shu o'rinda adaptatsiya tushinchasiga to'xtaladigan bo'lsak, vikipedia elektron ensiklopediyasida hamda ayrim biologik adabiyotlarda "adaptatsiya lot. adaptatio – moslashuv) organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi" kabi ta'rifning guvohi bo'lamiz. Psixologiyaga oid ayrim adabiyotlar jumladan F.I.Xaydarov, N.I.Xalilovaning "Umumiyligi psixologiya" darsligida "Adaptasiya- sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi, ya'ni moslashishi" deb ta'riflaydi. Nodira Egamberdiyevaning "ijtimoiy pedagogika" darsligida "Adaptasiya- organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarining shakllanish xususiyati. Shuningdek, adaptatsiya organizm faoliyatini tashqi muhit ehtiyojlariga qarab o'zgartirish qobiliyati hamdir." - deb ta'kidlaydi. Borliqda tirik mavjudot borki, u atrof-muhit sharoitlariga doimiy moslashadi. Biroq atrof muhit sharoitining o'zgarishini oldindan anglash faqatgina biz inson zotigagina xosdir. Inson bolasining dunyoga kelishi adaptasion sinovning ilk ko'rinishi bo'lib, yangi tug'ilgan chaqaloq endi suvli muhitda quruqlikka moslashishiga to'g'ri keladi.

Uning ikkinchi muhim moslashish davri maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichadi. O'zbekiston respublikasi prezidentning 2021-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonuniga muvofiq mamlakatimizda 3 yshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya oladilar. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy ish asosan tarbiyachilar, tarbiyanuvchilar va ularning ota-onalari ta'kidlagan kamchiliklarga qaratilgan bo'lib, ularni bartaraf etish uchun muqobil tushunchalarni qo'llaydi. maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalrning adaptatsiyasi quyidagi uch tasnifda ko'rindi.

1. ***Yengil adaptatsiya***- bola 10-15 kunda normalxulq-atvor qoidalariga qaytadi.
2. ***O'rta adaptatsiya***- bola yurish-turishining yoki emotsiyal holatining o'zgarishlari 15 kundan 30 kungacha davom etadi. Agar bola bu davrda ozib qolgan bo'lsa, keyinchalik u o'z vaznini tiklab oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnay bola bir marta yengil kasallikkha chalinishi me'yoriy holat hisoblanib, 7-10 kun mashg'ulotlarga kela olmasligi mumkin.
3. ***Og'ir adaptatsiya***- bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo'lish holati kuzatiladi. Ba'zan bronxit, pnevmoniya kabi jiddiy kasalliklar kuzatiladi va adaptatsiya bir oydan ortiq davom etadi.

Boladagi daptatsiyaning og'ir asoratlarga ega bo'lishida quyidagi oilaviy salbiy holatlar sabab bo'lishi mumkin:

- Noto'g'ri ovqatlanish;
 - bolani noto'g'ri belash;
 - salbiy odatlar (kashandalik, giyohvandlik, axloqiy nomalardan og'ish)
- Ijtimoiy pedagogik faoliyat uchun bosqichda amalga oshriladi.
- tashxis;
 - tayyorlov;
 - amaliyot.

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy pedagogning ish joyida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ta'lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik xizmatlari (maktabgacha ta'lim muassasalari, qo'shimcha ta'lim muassasalari, umumiyligi ta'lim maktablari, maxsus axloq tuzatish muassasalari, litseylar, gimnaziyalar, maktab-internatlar, bolalar uylari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, universitetlar);

• ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ijtimoiy xizmatlar (reabilitatsiya markazlari, ijtimoiy boshpanalar);

• shahar organlari xizmatlari (vasiylik va homiylik organlari, ijtimoiy psixologik va pedagogik yordam markazlari, aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limlari, oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam bo'limlari).

Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

• Guruhda, ta'lim muassasasining vzvodida, bola shaxsining umumiy madaniyatini shakllantirishga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsini jamiyat hayotiga moslashtirishga, atrofdagi tabiatga hurmat ko'rsatishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi. ;

• Bola shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlarini va uning mikromuhitini, yashash sharoitlarini o'rGANADI, qiziqishlari va ehtiyojlarini, qiyinchiliklari va muammolarini, ziddiyatli vaziyatlarni, xulq-atvoridagi og'ishlarni aniqlaydi va tarbiyalanuvchilarga o'z vaqtida ijtimoiy yordam ko'rsatadi va ularni qo'llab-quvvatlaydi;

• Bola shaxsi va ta'lim muassasasi, oila, atrof-muhit, hokimiyat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi;

• Tarbiyalanuvchilarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga, qulay va xavfsiz muhitni yaratishga, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga yordam beradi;

• mashg'uoltardan tashqari tarbiyalanuvchilarning iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi;

• tarbiyachilar, ota-onalar (ularni almashtiradigan shaxslar), ijtimoiy xizmatlar, homiylik va homiylikka muhtoj bolalar, nogiron bolalar, shuningdek o'ta og'ir vaziyatda bo'lgan bolalarga yordam berishda o'zaro aloqada bo'ladi;

• muassasa ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishda qatnashadi, o'z vakolati doirasida ularni sifatli amalga oshirish uchun javobgardir. ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy o'qituvchi ham ishtirok etadigan ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi.

• moddiy yordam ko'rsatish (naqd pul, homiylik, imtiyozlar va imtiyozlar, kundalik hayotda yordam);

• ijtimoiy yordamni tashkil qilish (odamlar bilan ishlash, xodimlarni jalb qilish, tekshirish, ilg'or tajribalarni targ'ib qilish); • insonga ta'sir. Bola shaxsiga ta'sir o'tkazish jarayoni bu pedagogik va psixologik ta'sir jarayonidir. Bu ijtimoiy ishchi, ijtimoiy o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Malaka xususiyatlariga muvofiq ijtimoiy o'qituvchi ishining mazmuni uning pedagogik yo'nalishi bilan belgilanadi. Demak, uning barcha kasbiy faoliyati mohiyatan tarbiyalanuvchilarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va yashash joyida tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

Faoliyat yuritadigan ijtimoiy pedagog tarbiyalanuvchilarning bolalik va shaxs sifatidagi huquqlarining buzilishining oldini oladi, ularning ijtimoiy himoyasining ta'minlanishini nazorat qiladi, bu borada ota-onalar, hokimiyat, ma'sul amaldorlar, psixolog hodimlar bilan doimiy aloqada bo'ladi, BMTning bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq optimal sharoitlarni ta'minlaydigan ko'pgina o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Ammo afsus bilan shuni ta'kidlash lozimki, hatto bugun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagoglar faoliyat yuritmayapti. Ular vazifasini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ayrim mudir va mudiralra hamda guruh tarbiyachilari amalga oshirmoqdalar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ijtimoiy peadgoglar faoliyati ta'lim tizimimizning muhim bir nuqtasi bo'lganligi sababli, davlatimiz, oliy va o'rta ta'lim vazirligi, maktabgacha ta'lim vazirligi bu muammoga diqqat qaratishi, OTMlarda ijtimoiy peadgoglarni tayyorlovchi ta'lim yo'nalishlari tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasining "ta'lif to'g'risida"gi qonuni. 2021-yil 23 sentabr. Toshkent.
2. o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" 2019-yil 31-dekabr, 1059-sonli qaror.
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova "umumiy psixologiya"-darslik.:Toshkent-2009.144-b.
4. N.Egamberdiyeva "ijtimoiy pedagogika "-darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti.:Toshkent-2009. 119-125-betlar.
5. Aynurra baxtiyorova bazarbayevna "ta'lif muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik faoliyat" (maqola) "science and education" ilmiy jurnalni. May 2021-yil, volume-2, issue 5.
6. Vasilkova Yu.V. Ijtimoiy pedagogika bo'yicha ma'ruzalar (mater. Ota tarbiyasi). - Ed. 2-chi. - M.: "Poligrafresursiya" GF nashriyoti, 1998 y.
7. Vulfov B.Z. Xalq ta'lifi tizimidagi ijtimoiy o'qituvchi. // Pedagogika, 1992 y., 5/6. - S. 45-49